



## SHOIRLIK VA "NAZMI TAB' " NUFUZLARI

Tahir Shermuradov

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti

universiteti Masofaviy ta'lim kafedrası

katta o'qituvchisi

Tel: +998935723571

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15632594>

## Annotatsiya

Ko'p asrlar mobaynida musulmon diyorlarda inson ma'naviyatini uning nazmdagi va nazmni tushunishdagi tab'lari bilan baholash bosh mezon bo'lib kelgan. Ommaviylashgan bu urf, qoida shaxsning ayni sohalarga bevosita mansubligini nazarda tutish bilangina cheklanib qolmagan, balki aholining boshqa qatlamlari dunyoqarash tarzini ham qamrab olgan. Ya'ni, mazkur mezonning qamrov ko'lamı g'oyatda keng bo'lgan. Insonning ilohiy haqiqatlarni, talablarni tafakkurlashdagi darajasi, ularga rioyatdagi ahvoli uning turli ilmlar, nazmlar, nazmshunoslikka doir munosabatiga qarab ham belgilangan.

**Kalit so'zlar:** nazmi tab', haq ta'limot, hikmat, she'rshunoslik, tavorud, tab'parast, ash'orfa hmlıq.

Ulug'vor bu tamoyil hukm surgan asrlardan biri Alisher Navoiy yashagan davrdir. She'r ishida ham, uni tushunishda ham hikmatlar – haqiqatlardan voqiflik kamoli bu zamonda eng dolzarb ma'rifiy talab va asl maqsad-muddao hisoblangan. Adabiy ijodchılarning, muxlislar ommasining, she'rshunoslarning ma'no-mohiyatlarni qay darajadagi zehnu farosat bilan idroklashlariga qarab ularning salohiyatlariga baho berilgan. Bu borada qator mutafakkırlarning, ayniqsa, Navoiyning talqınlarını kuzatish bugun va kelajak davrlar uchun beqıyos manfaatlar beradi. Mavzu fundamental tadqiq etilishi joiz yo'nalıshdır. Sog'lom insoniyat imkonıyatlarınę eng yuksak maqomlarını idroklatib beruvchi o'sha davrlardagi ta'limotni, talablarni, adabiy-ilmiy natıjalarını o'rganish, xususan, hozirgi o'zbek adabiy jarayoni, adabıyotshunoslıęı tamoyıllariga doir muhim qıyoslar hamda xulosalar chıqarish imkonını beradi.

Hayot kechırishning barcha ko'rinishida e'tiqodan maqbul muvaffaqıyatga faqat batamom to'g'rilik – sof islom ta'limoti vositasida erishiladi. Batamom to'g'rilik yo'lidan esa haqiqatlar hissıdan voqif tafakkur, sog'lom qalb, xulqıy go'zallik sıfatları boshlab bora oladi. Shoirlik va she'r ilmlarınę ham birdan-bir asosiy sharti shundadır. Bunday ijodkorlıknę va ijodga munosabatchılıknę hatto shu yo'sın dardi, hayoli, mushohadasi, ıztırobi, niyat, orzulari ham ilohan ibodat maqomida qabullanadi. To'g'rilik ila urinishlardan hosil natıjalar pırovardida sohibınę o'zıga va o'zgalarga qilgan yaxshılıęıdır.

So'z san'ati va unga qaratilgan ilmlardagi bunday idrok tarzınę masdari va o'chmas mayog'i haq ta'limot ekanlıęı tufaylı barcha mumtoz ijodkor donishmandlarınę adabiy-nazariy qarashları, hayotiy kuzatishları, xulosaları bir-bırını boyitib, hayratomuz mushtaraklık kasb etadi. Islomiy poetik tafakkur jarayonıgagina xos bo'lgan ayni yuksak mushtaraklık hamma vaqt nazmiy va nasriy ijodga, maxsus ilmlarga, umuman kitobxonlıkka kirib kelish, shakllanish, muvaffaqıyatga erishishning ham kafolati bo'lgan.

Ilohiy mantiqlar hamda ijod pafosınę o'zaro uyg'un namoyon bo'lishi, tasvirdagi ma'nolar yoxud tagma'nolar borasidagi qarashlarınę bir-bırıdan bexabar vazıyatlarda ham

aynan bir xil sodir bo'lishi kabi adabiy hodisalar e'tiqoddagi, ilmiy-poetik fikrlashdagi yakdillik va sobitlikning hayotiy ko'rinishlaridir. Bunday umumsifatlar haq ta'limotning aqlni o'jiz qoldiruvchanligidan, hamma makon va zamonga salohiyatli qilinganidan, tasarrufiy ulug'vorligidan dalolatdir. Ayni paytda, bu nazmiy, nazariy natijalarning sharqdagi son-sanoqsiz misollari ko'pchilik yuksak zakovat egalaridagi qalbiy, shuuriy harakatlarning naqadar to'g'riligini dalillovchi hayratlanarli faktlardir.

Ilohiy qonuniyat va unga taslim adabiy-nazariy tafakkur tarzining eng yuksak maqomini Navoiyning butun hayoti hamda ijodi mohiyatidan, ayniqsa, shu masalalarga doir qarashlari aks etgan asarlaridan teran idroklab olmoq mumkin.

Ma'lumki, O'rta Osiyo bo'ylab islom dini taralishining ilk asrida yashagan buyuk mantiqshunos olim Abu Nasr Farobiy (IX asrning ikkinchi – X asrning birinchi yarmi) o'zining "Shoirlar san'ati qonunlari haqida risola" sida she'riyat mohiyati, so'z san'ati ilmining umumiy qoidalari to'g'risida fikr yuritgan edi. U shoirlarni toifalab tushuntirib, har toifaning komillikdagi darajasini tavsiflab beradi. [Farobiy, 1979:27-40]. Umuman, Farobiyning mazkur mavzulardagi ilmiy qarashlari masalaga islomiy ta'limot asosida yondashuvning sobitlashganini tasdiqlovchi dastlabki manbalardandir. Navoiy ham "Mahbub ul-qulub" (1500) asarining "Nazm gulistonining xushnag'ma qushlari zikrida" nomli 16-faslida islomiyat olamidagi shoirlarni to'rt guruhga ajratib vasflaydi. [Navoiy, 12011: 464-465].

Birinchi guruh shoirlar ilohiy ma'rifat xazinasining javohirlari bilan boyigan va elning fazli-ezguligi uchun ma'nolar xazinasidan javohirlar yig'adigan so'z san'atkorlaridir. Ularning asarlari so'z mo'jizalari bo'lib, ular she'rlarini she'r deyishga ham til bormaydi, chunki o'ta jozibador aytilgan hikmat-haqiqatlardir.

Ikkinchi guruh shoirlar - haqiqat sirlari bilan majoz sirlarini uyg'un tarzda ifodalovchi uslublar sohiblari.

Uchinchi guruh shoirlar she'riyatida majoziy ma'nolar yetakchilik qilsa-da, avvalgi guruhlar maqomida poetik fikrlaydilar va o'z guruhining uslubiy go'zalliklari bobida kamol sohiblaridir.

To'rtinchi guruh – pastki tabaqa. Ular she'r yozganiga xursand. Shoirlik da'vosi juda baland. She'rlarida na haqiqat, na ma'rifat bolidan lazzat bor.

Farobiy va Navoiyning shuaroni toifalashtirishida va ta'rif etishida bir-biriga ziddlik, tafovut yo'q. Navoiy talqinida mezonning va sohaga talabning to'g'ridan-to'g'ri haq e'tiqod ta'limotlaridan olinayotganiga, shoirlar salohiyati hamda tafakkur tarzlarining shu asoslardan turib baholanayotganligiga guvoh bo'lasiz. Ikki alloma ham toifaviylik manzaralarini o'tmish yoki o'zlari yashayotgan davrlarga maxsus nisbat bermaydi. Zotan, bu nuqtai nazar barcha davrlarga, xalqlarga, jumladan, bugungi va kelajak adabiy-ilmiy jarayonlarga ham daxldor dasturilamaldir.

Kuzatayotganimiz masalalarni tafakkurlashda ikki yoki ko'p kishining bir-biridan behabar holda bir hil fikrlashi, fikrlarining bir joydan chiqishi Navoiy davrida va Navoiy tilida "tavorud" deyilgan.

Shoirlikning haqiqiy taqozolari, sharafi va ulkan mas'uliyati idrokidan g'ofil qalamkashlarni Navoiy tanqid qildi. Ularga raddiya bildirdi, monelik ularning o'z ahvoli, kayfiyatida ekanini bildirdi. Qolgan uch guruhning har biriga mansub o'tmish va zamondosh shoirlarni nomma-nom sanab, ularni ulug'ladi. Bu ulug'lov, ayni vaqtda, shunday ijodiy rutbalarga mansublikning, shunday maqomlarning ulug'lanishi edi. Diqqat qilinsa, bunda shoirlik tasvir ob'ektlari, mavzular doirasi, diniy yoki dunyoviy talqinlari, ilohiy yoki majoziy

ishqlariga ko'ra chegaralanayotgani yo'q. Shoirilar ilohiy haqiqatlardan voqiflik, nazmdagi tab'lari, uslubiy moyilliklari, kamolot darajalari, erishgan yutuqlariga qarab e'tirof etilmoqda. Zotan, hamma narsaning yaxshisini, eng to'g'ri tadbirini o'rgatuvchi islom ta'limotlarida diniy va dunyoviy degan ayirmachilikning o'zi yo'q.

Shoirlikdagi rutbalarining bunday xolis, adolatli, hayotiy belgilanishi hamda chuqur ta'riflar, o'rinli, haqqoniy vasflarning aytilishi buyuk mutafakkirning umr oxiridagi boshqacha bo'lishi mumkin emasligi ayon nodir xulosalari edi. Ulardan she'r va shoirlikka qo'yiladigan ilohiy tavsiyalar, o'gitlar, hukmlar, ruhoniylar kamolotning bundagi yo'l-yo'riqlari, vazifalarning ko'lamini, sharafi ufurib turadi. Muhimi, Navoiy qarashlari badiiy va adabiy-nazariy tafakkurning eng oliy, turfa ma'naviy xavf-xatarlardan, zoeliklardan xoli, muhofazasi haq ta'limot bilan kafolatlangan imkoniyatlari, hadlarining yorqin ifodasi edi.

Navoiyning butun hayotiy va ijodiy amali chin e'tiqoddan bir lahza bo'lsin toyilmasdan yashashga qaratilgani, so'z vositasida elga yaxshiliklar taratish, ijodni ikki dunyo saodatiga doxil yaratish bo'lganini, binobarin, "Mahbub ul-qulub" dagi tavsiflar o'z-o'zidan bunyod bo'lmaganini, bu benazir, qoyilmaqom bir umrning tajribalaridan hosila sifatida yuzaga chiqqanligini fahmlash qiyin emas.

Navoiy adabiy-nazariy qarashlaridagi she'r va shoirlikka oid donishona qoidalar, talablarni uning "Majolis un-nafois" tazkisasi yanada keng miqyosli, yanada teran idrok etdiradi. Undagi majlislarining tarkibi va o'rni, har bir majlis ahlining zikri, yodi, tavsifi, kamoldagi ular darajasining belgilanishi – hammasi Navoiyning butun borlig'i bilan islomiy asoslardan va mezonlardan turib masalalarga yondashganligini ko'rsatadi. Zero, din Navoiy uchun, o'zgaralar uchun ham bir vosita emas edi, balki hayotlarining, barcha jabha faoliyatlarining maqsad-mazmuni edi. Har qanday zamon va makonda Navoiyni, umuman esa, o'zbek mumtoz adabiyotini boshqacha tushunishlarga urinishlar o'zini oqlay olmaydi.

"Majolis un-nafois" da tazkiranavis hech qaysi shoirning xos jihatini, tabiatini, haqiqatlardan ogohlik darajasini e'tibordan qochirmaydi. Nazm ishtiyoqi va nazmiy ma'nolarga muhabbat bilan yo'g'rilgan umrguzaronlikda ham barkamollik ming bir shart, odobni taqozo etar ekan, Navoiy har ijodkor ta'rifida uning o'z iqtidori parvarishiga nisbatan intizomiga, nazmiy tab'iga bo'lgan mas'uliyatini to'g'ri aytishdan chekinmaydi. Mavjud muayyan chekinishlari esa ilmiy odobdan bo'lib, gapning cho'zilib ketmasligi ("so'z uzulur") uchundir yoki, shoir Amir Shayxim Suhayliy vasfida kelganidek, ziyoda maqtovlardan tiyilish uchundir: "Avvaldan oxirg'acha faqir bila iltifot va ittihodi ko'p uchun mundin ortiq ta'rifin qililsa, o'zumni ta'rif qilg'ondek bo'lurdin qo'rqub, ixtisor qilildi..." [Navoiy, 339].

Tazkirada barcha masalaga munosabat nazm ahli va ahli maoniylarning turli-tuman tab'lariga muvofiq va muallif Navoiyning hikmatlar olamiga yetishgan, g'oyatda baland maqomdagi tab'i doirasida kechadi. Ijodkorlarning she'riyatdan boshqa sohalarga nisbatan bo'lgan tab'lariga ham diqqat qilinadi, ammo butun xolisona adabiy-nazariy talqin mobaynida "nazmi tab'" ruhi yetakchilik qiladi. Tabiiyki, nazmdagi tab', fahmu farosatning shuarodagi ahvoli turlicha xushtab', noxushtab' ranglar va rutbalarda bo'lgani uchun tab'lar har kimda har xil sifat bilan keladi: "yaxshi tab'", "xeyli tasarrufliq tab'", "xeyli latif tab'", "tab'i muloyim", "tab'i salim", "tab'i ham xoli az salomat emas", "muhriddin fahm", "tab'parast", "tab'i bag'oyat xub", "fahmi yomon emas", "g'arobatjo'y tab'", "tab'i hazlg'a moyil", "tab'i xeyli sho'x", "dilpazir tab'lik", "xom tab'", "tab'i nomavzun" va hokazo.

Navoiy tazkisasi o'sha davrga kelib, turkiy xalqlar adabiy jarayoni uchun yanada dolzarblashgan juda katta ma'naviy-ma'rifiy, tarixiy-ijtimoiy ehtiyojga hozirjavoblikning

ulkan namunasi sifatida yuzaga keldi. Tazkiraning bu ahamiyati uning debochasi mazmunidanoq anglashiladi: islom olamining barcha asrlarida nazm ilmi qoyillari hamda she'r fani komillari sharif va aziz qavmlar hisoblangan; ularning zikrlari maxsus jam etilgan risolalar, kitoblar bor; Abdurahmon Jomiy "Bahoriston" ining yettinchi ravzasi ("She'r va shoirlar"), Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" si shular jumlasidan; ammo ma'ni nazokati va ajoyibotining qanchalarki shartlari bo'lsa, ularni burungilardan qolishmay ado etayotgan shu zamon shuaro si va davr zurafo si ham tarix sahifalariga muhrlash maqsadga muvofiqdir.

"Majolis un-nafois" tazkisasi ham shu bobdagi avvalgi asarlar singari "alarning nomiy otlari va kiromiy sifotlari zamon sahoyifidin va davron safoyihidin mahv bo'lmasun", "har qaysining natoyiji tab'idin (tab'larning natijalaridan – T.Sh.) biror nima nishona" qolsin degan maqsadda yozildi. [Navoiy, 290-291].

Shu ma'noda 500 ga yaqin ahli nazm va mohiyat bilimdonlarining tab' xosliklariyu tab' natijalari tavsifini o'z ichiga olgan sakkiz majlisli "Majolis un-nafois" go'zal shoirona tab'lar gulshanining o'z zamonasiga hamda kelajak nasllarga atalgan manfaati tuganmas armug'oni hamdir.

Ushbu nafis suhbatlarda zikri kelgan nazmi tab'lar "Mahbub ul-qulub" da bayon etilgan ehtiromga sazovor shoirlik guruhlariga mansub tab'lardir. Tazkirada Navoiyning adabiy-tanqidiy mulohazalari ham ko'p. Shularga qarab, "Mahbub ul-qulub" da nazmchilikning eng past tabaqasi sifatida qoralangan toifa ichidan ham ba'zi shoirlar "Majolis" da ta'riflangan bo'lishi mumkin degan o'y-fikrga bormaslik kerak. Tazkirada bunday xulosaga olib boradigan asos yo'q. Chunki Navoiy hamma shoirlarni ulardagi tab' imkoniyatlaridan kelib chiqib tavsiflaydi, bu imkoniyat, quvvatlarning qanchalik yuzaga chiqqani yoki chiqmaganiga qarab tab' egasini baholaydi. O'zi ilohiy hikmatlar, manzur majoziy haqiqatlar mezonidan turib natijalarni taammul qiladi. Qolaversa, haq yo'l nimaligini bilgan holda ham, uning yo'lovchisi bo'lib turib ham, ba'zan yoxud batamom undan toyilish, xatoliklar sodir qilish, ruhiy islohtalab holga tushish kabi hollar toza tabiatli odamlarda ham uchrashi mumkin bo'lgan xususiyatlardir.

Muayyan shoirlar zikridagi Navoiyning o'git, tanbeh, tavsiya, tanqidlari esa ularda sodir bo'lgan, bo'layotgan insoniy ojizlik, dangasalik, loqaydlik, o'z tab'lari tarbiyasiga beparvolik, mansabga, mol-dunyoga, o'tkinchi hoyu-havaslarga o'zini urish oqibatidagi zoeliklarning beg'araz, xolis, adolatli ifodalaridir.

Nazmi tab'lari yaxshi bo'lsa-da, ammo kamoliga qandaydir moneliklar sabab bo'lgani aytilgan ta'riflardan ayrimlarini mushohada qilib ko'raylik:

"Xoja Muayyat Devona - ...O'zi oshuftadimog' kishi erdi. Ammo nazmi ravon va salis voqe' bo'lur erdi. Anga saltanat da'vosi bor erdi. Hamul ish ustiga ani zoe' qildilar..." [Navoiy, 317].

"Xoja Abu Ishoq - ...Tolibi ilm va xush tab' yigit erdi. Ammo badxo'y va mutakabbir ham bor edi..." [Navoiy, 318].

"Mirzobek - ...Insoniyat va xush axloqliqda Xuroson va Samarqand mulkida yagona erdi. Tab' va fahm va otaru tutarda bu ikki mulk yigitlari orasida saromadi zamona bu nav' ta'riflardin mustag'niy...

Ko'zing ne balo qaro bo'lubtur,  
Kim jong'a qaro balo bo'lubtur.

...Agarchi aning tiliga bu nav' abyot ko'p o'tar erdi, ammo hargiz parvo qilib bir yerda bitimas erdi... Hayf va yuz hayf va darig' va yuz ming darig'kim, hayot chashmasidin serob bo'lmadi va umri nahli mevasidin bar yemadi..." [Navoiy, 336].

Kichikligidan nazmning barcha turlariga qobiliyati ko'p, turkiy va forsiy she'rda rushdi bor bo'lgan "Soqiy - ...Hech ma'lum bo'lmadikim, anga ne balo urdikim, ushbu sifatlardan hech nima anda qolmadi va el orosidin chiqti. Umid ulkim, bu idborin Haq taolo iqbolig'a mubaddal qilg'ay..." [Navoiy, 401].

"Mavloni Abdulqahhor – donishmand kishi erdi. Hiri shahrining mutaayyin xush tab'laridin erdi. Mavlononing hayoli kimyogarlikka tushib ko'p nima zoe' qildi va hech nima hosil qila olmadi..." [Navoiy, 312].

Imkoni bo'la turib, nazmi tab'iga ish buyurmaslikni, shoirlikda quvvati bo'lsa-da, devonavash va abtarsheva yashashni, bad'fe'llikni, ichguvchilikni, birov aytgan rangin ma'noni o'z tasarrufiga olishni, el she'rini o'ziniki qilib olishni, behayolik va bad'she'rlik ila mashhurlikka intilishni Navoiy qattiq qoralaydi.

Navoiy ahli vuqufni – ilohiy haqiqatlarni donishona idroklovchilarni, mohiyatni xoh asl holidan bo'lsin, xoh majoziy usulda bo'lsin, san'atkorona tarannum etuvchilarni, serma'no ifodani, rangin ma'nolarni ziyrak, daqiq sharhlay oluvchilarni e'zozlab vasflaydi. Nazmiy tasvirda, unga munosabatda, muhokama etish jarayonlarida voqe bo'lgan yuksak bilag'onlik ko'rinishlarini qayd etadi, hikoyalaydi ham. Mavloni Kotibiy ta'rifida "...o'z zamonining benaziri erdi. Har nav' she'rg'aki mayl ko'rguzdi, anga maoniyi g'ariba ko'p yuzlandi..." [Navoiy, 295] desa, Hoja Avxat Mustavfiy ta'rifida "...O'z asrining yagonasi erdi. Ko'proq ulum va fununni bilur erdi, bataxis ulumi g'aribani, ammo falakiyotda shuhrati bor edi", [Navoiy, 309] deydi. Bunday azizlarni Navoiy "ahli botin", "ahli zohir", "fuzalo", "zurafo", "zarifvash", "ahli tamiz", "ahli sidq", "zehni mushkulkusho", "tafakkuri barcha diqqatlarga vofiy", "tab'i sofiy" va boshqa qator maqtov so'zlar bilan sifatlaydi. Ba'zan ajoyib nazmi tab'larning yuqori bahosini beradi-da, ta'rifga kitobxonning yanada ishonch hosil qilmog'ini istab, unga shoir kitobini o'qishni tavsiya qiladi: "...Tab'ining ne miqdor quvvat va latofati bor erkanin she'ridin bilsa bo'lur, o'qig'on bilg'ay". [Navoiy, 334]. Yoki "Aning tab'i diqqatini har kishi bilay desa "Shabistoni hayol" degan kitobini ko'rsun..." [Navoiy, 297]kabi.

Ma'nolar olamiga bepisandlikni Navoiy tab' ahliga nomunosib hol deb biladi. Mavloni Xayriy degan shoir ta'rifida deydi: "...Ammo shoirlikda heyli quvvati bor. Qasoyidi bor, g'azaliyoti ham yamon emas. Tab' ahli qoshida mat'undir, mungakim, abyotining ma'nisin so'rsalar bilmas, bilsa ham ayta olmas. Ammo ul muni musallam tutmas..." [Navoiy, 404-405].

Tazkiraning "fasohat ilmining seyrsozi", "balog'at jahonining mo'jiza pardozi" – Sulton Husayn Bahodirxon ijodiga bag'ishlangan so'nggi majlisi matn qa'riga botiniy va zohiriy yondashuvning, mahoratni tahlil qilishning namunali darsi sifatida yanada diqqatga sazovor. Unda shoir devonining har g'azalidan bir matla' ajratib olinib, ma'nolarning va san'atkorlikning yangilik darajasiga baho beriladi. Tahlilga tortilgan qator baytlarning haqiqatan "shariflab" va latif zehn"ning natijalari, shoirning davr turkiy she'riyatidagi o'ziga xos ixtirolari ekanligi aytiladi. Navoiyning ushbu kuzatuv va xulosalarida mubolag'a, madh ruhi yo'q. Uning taammullari maqtov bobida ikkilanishga o'quvchida asos qoldirmaydi.

Matla'lar sharhi nihoyasiga yetgach, Navoiy o'z tazkisasi uslubidan xiyol chetlanib, "Xilvat" sarlavhasi ostida Sulton Husayn Bahodirxon bilan o'zi o'rtasida kechgan ko'p sonli hayotiy voqealardan ikkitasini ilova qiladi. Lavhalar she'r haqiqatiga talab va uslub idrokidagi ziyraklik haqidadir. Ulardan birining muxtasar mazmuni quyidagicha: Bahor ayyomining bir

kuni. Turkiy va forsiyda malik ul-kalom Lutfiy Navoiyga Xisrav Dehlaviyning hinducha ash'orida yomg'ir torlari ifodasiga oid ajib ma'ni borligi haqida gapirib qoladi. Ishq ko'yida ko'p mashaqqat ko'rgan mahbub balchiqqa oyog'i toyib yiqiladi. U nihoyatda darmonsiz, bemajol. Mahbub yomg'ir torlari madadi ila o'rnidan turadi. Shoirning bu qadar inja hayoloti va mubolag'asiga Navoiy ham ofarinlar aytadi. Tasvirlashdagi mahorat sifatida bu misol har kimning qoshida ko'p naql qilinadi. E'tirof va hayrat barcha nazmiy tab' ahlida bir xil kechadi. Oliy majlisda Navoiy Sulton Sohibqironga ham Lutfiy bilan bo'lgan muloqotini aytib beradi. Sulton Husayn maqtalagan ma'noga ko'p iltifot etmay, tabassum qilib qo'yadi. Navoiy ayni ma'no Sultonda e'tiroz uyg'otganini fahmlaydi. Hech bir tab' ahli idrok etmagan mohiyatni eshitgan Navoiy Sulton talqiniga "quloq tutib o'z nuqsi tab'img'a mu'tarif bo'ldim", deydi. Ya'ni, yog'in qatrasi yuqoridan quyiga inadi, yiqilgan kishi uning madadi ila o'rnidan turmog'i maholdir, magarki, o'rgimchak (ankabut) to'qigan rishtalar ko'magida o'rnidan turdi, deyilsa yarashiqdir.

Za'fdin kulbamda qo'pmoq istasam, aylar madad  
Ankabut rishta osqon bo'lsa har devorg'a.

Davrda idroklar harakatining g'oyatda qizg'inligini, idroklarning baland maqomlardagi sog'lom "musobaqasi" ni, so'zga va she'rga mas'uliyatining eng yuqori pag'onalarini ko'rsatuvchi bunday lavhalar hamda nazariy qarashlar Navoiy asarlarida juda ko'p.

Ma'lumki, Navoiyning "Nazm ul-javohir" asari bizga payg'ambarimiz alayhissalomning kuyovlari, to'rtinchi halifa hazrati Ali (raziyallohu anhu) qalamiga mansub "Nasr ul-laoliy" hikmatlar majmuasini yuksak mahorat bilan bitilgan ruboiylar ko'rinishida taqdim qiladi. Navoiy ta'rifini ado qilib bo'lmas so'z ahamiyati, she'rchilik, shoirlik va bular tafakkuri to'g'risidagi o'z qat'iy qarashlarini Qur'oni Karim oyatlari, bevosita hazrati Aliga yoki umuminsoniyatga aytilgan hadislar bilan, hadislardan olingan iqtiboslar bilan dalillaydi. So'zning bashariyat uchun misli yo'q ilohiy ne'mat ekanini, ijod mas'uliyati naqadar og'irligini, idroklash martabalarining qaysilari faqat maqsadga muvofiqligini aytadi.

"Nazm ul javohir" debochasidagi Navoiyning quyidagi fikrlari ham nazmi tab' ahlining "Mahbub ul-qulub" da toifalanib aytilgan ko'rinishlarini ifoda etadi. Ayni choqda, dunyo tab' ahli, insoniyat uchun so'zga idrokiy munosabatning, so'z borasidagi kamolning bundan boshqa to'g'ri yo'l-yo'rig'i yo'qligini anglatadi:

"Ma'lum bo'ldikim, so'zga marotib bor va har martabada hunar ma'yib va ul marotib ijmoli yuzidin idrok va diqqatoyinlari va uqul xurdabinlari qoshida uch qism birla munqasimdurur. Va lekin tafsil hisobida ko'proq mutafarri' bo'lur" [Navoiy, 33].

Navoiy masalani tavsil hisobida, ya'ni chuqur, atroflicha, keng miqyosda kuzatilsa, mazkur uch martabaning o'z ichida yanada ko'proq manzaralari bilan namoyon bo'lishini ham ta'kidlamogda. So'zning va so'zga munosabatning ulug' martabalari tahqiqi – so'z haqiqatini izlash, sinchiklab tekshirib ko'rish yumushi shuning uchun ham Navoiyni tengi yo'q hayratlar olamiga olib kiradi va u deydi:

"Alloh-Alloh! So'z marotibi tahqiqi ne balo daqiqdurkim, aning silkidagi javohir o'zin harfi tirziqqa yetkurur. [Navoiy, 33].

Navoiyning shoirlik martabalari haqidagi qat'iy xulosalaridan yana shu narsa ayon bo'lmoqdaki, nihoyatda ko'p va xilma-xil bo'lgan nazm ahlining uch marotib (martaba) bo'lib namoyon bo'lishi e'tirofi Farobiy yoki Navoiygagina emas, barcha baland idrok sohiblariga,

barcha tez-fahm oqillarga ham xos. Martabalar, ularning o'ziga xosliklari, ta'rif-tavsifi qanday asoslarga tayanilgan holda belgilanmoqda? Uch toifa shoirlik nega nufuzu baland sanalmoqda, maqtalmoqda?

Mavzuning barcha masalalari ko'lamida bu savollarning javobi hammasidan muhimdir. Chunki aynan shu yo'naltiruvchi asoslarda sohaning – so'z san'ati va unga qaratilgan ilmlarning hayot-mamoti mujassam. Zero, yo'l to'g'ri bo'lmasa, muayyan salohiyatli shaxsiyatda ilmu amal o'zaro uyg'unlik, mushtaraklik kasb etmasa, ijodiy natoi (natijalar) zoelik tomon ketadi, ibodat maqomida bo'lmaydi, sohibining ikki dunyo saodatiga kafolat bo'la olmay qoladi.

Islom keng va muvaffaqiyatli taralgan barcha diyorlarda ahli donishlar shoirlikning ko'rinishlari hamda shunga doir hamma ilmu odoblarni, nazmi tab'ni, uslubni, ijod natijalarini ularning ilohiy hikmatlarga muvofiqlik darajasiga qarab tahqiq qildilar, baholadilar. Adabiyot, shoirlik, filologik ilmlardagi jamiyki nufuzlarning belgilanishi o'zga muqobili yo'q va bo'lishi ham mumkin bo'lmagan yagona mezon – islom ta'limotlari, hikmatlilik negizida kechdi.

Insoniyatga ayon-noayon hamma hikmatlar masdari Allohdir. Islom, san'atining vositasi so'z bo'lgan badiiy ijodga diniy mavzular, g'oyalar majburiyatini qat'iyat qilib qo'ymaydi. Talqinni "dunyoviy" qilishdan, hayotiy haqiqatlarni ro'y-rost aks ettirishdan ham qaytarmaydi. O'rinli va adolatli bo'lsa, keskin fosh qilish, hajv, madh uslublarini ham, musiqaga hamkorlik mayllarini ham man etmaydi ("Majolis un nafois" da Navoiy o'zining musiqa ilmidan dars olganini, ba'zi shoirlarning o'z g'azallarini ohangga solishini aytadi). Islom poetik tafakkurning, uslub, usullarning hidoyatlangan har qanday ko'rinishi uchun keng imkoniyatlar ufqini ochib qo'yadi. U faqat haq e'tiqodning ko'rsatgan hadlaridan toymaslik, hikmatlardan uzoqlashmaslik sharti-talabini ilgari suradi. Zotan, shundagina barcha yo'nalishdagi asar, sof "dunyoviy" ijod ham bir vaqtning o'zida sof "islomiy" tafakkur natijasi sifatida qadr topmog'i, yashovchanlik kasb etmog'i, yaxshilik taratib turmog'i mumkin. Bunday va boshqacha shakllardagi har qanday ijodiy muvaffaqiyat hikmatlar vositasidagina, ularga batamom taslimlik bilangina vujudga keladi.

Idroklarni hikmatlar olamiga chorlovchi nasihatlar safida o'zlari hikmat-haqiqat bo'lgan ko'rsatmalar oz emas. Ulardan Navoiy o'z asarlarida qayd etgan ba'zilarini taammul uchun keltiramiz: "Haqiqatan ham, ba'zi she'rlarda sehr, ba'zi so'zlarda hikmat bor" (hadisi sharifdan iqtibos). "Men ilm shahridirman, va Ali uning eshigidir" (hazrati Ali r.a. haqidagi hadisi sharif). "Haqiqat – shariatning botini, haqiqat – mushohada ilmi. Haqiqat ilmi muroqaba (mushohada) uchundir". "Sirlar xazinasining eshigini qoqqan kishi ziyrakdir". "Majoz – haqiqat ko'prigidir". Va hokazo.

Demak, gap inson poetik tafakkurining hikmatlar sari intilishida, bitiklarining ular bilan nechog'lik uyg'unligida, e'tiqodiy hadlardan qaysidir tomonlarga og'ishmasligida, shoirning hikmatparastligi hamda tahqiqchilarning hikmatvashligidadir.

Turli lug'atlarda hikmat "donishmandlik", "bilimdonlik", "falsafa", "sir", "maxfiy sir", "aql va haqiqatga barobar to'g'ri keladigan so'z" qabilida talqin etiladiki, bu tushuntirishlar ma'rifat nuqtai nazaridan "hikmat" lug'aviy, istilohiy mohiyatini to'laligicha ochib bera olmaydi. Hikmat ilohiy asl mohiyat, haqiqat ifodasi bo'lib, ma'rifatullohning – Allohni va o'zini tanishning natijasi o'laroq idrok etiladi. Hikmatsizlikni, undan g'ofillikni Navoiy zoelik, behudalik sanaydi, voqiflik ko'rinishlarini esa ulug'laydi. Shuningdek, hikmatlarning ilohan sobitligiga ko'p urg'u beradi. Chunonchi, "Lison ut-tayr" dostonida Navoiyning shunday baytlari bor:



Hikmatdin voqif ermasdur kishi,  
Bo'lmadi bu ish kishining chun ishi.

Ish erur ulkim, o'zi oni qilur,  
Hikmat ulkim, haq o'zi oni bilur.

Haq ta'limot tasnifida ruhiy-ma'naviy jihatiga ko'ra insoniyat ikki toifadir: tafakkur qilguvchilar, tafakkur qilmovchilar. Birinchi toifaning baxtiyorlar ekani, ikkinchi toifaning esa e'tiqodiy imkoniyatdan bebahra, mosuvo, badbaxtlik yo'lidagi bani bashar ekanligi aytiladi. Haq subhanahu va Taolo Qur'onda insoniyatni takror-takror oqil bo'lishga chaqiradi, tafakkurchan yashashga buyuradi. Negaki, dunyo ilohiy hikmatlarga limmo-lim to'ldirilgan makon, vatandir. Olamlar vahiy bilan tirikdir, vahiy ko'tarilsa, hamma narsa tugaydi. Faqat sog'lom qalb va uyg'oq tafakkurgina bularni idroklaydi, insonni ruhiy kengliklar tomon boshlay oladi. Hikmatlar dunyosiga ular vositasidagina kirib boriladi.

Shoirlik – daqiq tuyg'uchilik, nafis tafakkurchanlik demakdir. She'rchilik jarayoni zavqli, ayni choqda, zahmatli poetik idrok, poetik to'qish harakatidir. Bu jarayon qanchalik oqilona, qizg'in, omadli kechmasin, yangi hikmat to'qilmaydi, yaralmaydi. Shoir hikmatlarning to'quvchisi, yaratuvchisi bo'lib namoyon bo'la olmaydi. Chunki hikmatlarning egasiva masdari Alloh, hikmatlar olamlarning o'zida ilohan sobit.

Shoir hikmatlarni bunyod qilishga qodir emas. U – hikmatlarning idrokchisi. O'zini ayrica ta'sirlantirgan haqiqatning badiiy ifodasi, ruhini matnga jozibador singdiruvchi, so'ngra o'zgalarga taqdim etguvchidir. U o'z diqqat e'tiborini tortgan har bir narsadan hikmat izlaydi. Tasvirini hikmat bilan bezashga intiladi. She'riyatining siymosi, pafosi, maqomi uning hikmatlarga daxldorlik darajasi bilan belgilanadi.

Yetarli mushohada qilinmasa, ijodchilikdagi ushbu beqiyos imkoniyat sun'iy mahdudlik, tarixiy muvaqqat an'ana bo'lib tuyulishi mumkin. Holbuki, unday emas. Bu nafaqat she'riyatga, balki butun badiiy adabiyot, san'atga xos eng yuksak had, latif chegaradir. Yashirindek his qilinadigan ilohiy qonuniyatdir. Bu poetik tafakkurlarning mutlaq mintaqasi bo'lib, yangiliklar, yangilanishlar kashfi maydoni hamda har jihatdan muhofaza hududi hamdir. Odatda, aksariyat insonlar shubhasiz haqiqatlarni tezroq bilib olishni va ularga tobelanishni ko'zlaydi. Shoir ham shunday, biroq unga bu intilishning o'zigina kifoya emasdek ko'rinadi. Yangichalik qidiradi. Hamma davrlarning oqil iste'dod egalari va tadqiqotchilari Alloh iroda qilgan mazkur oliy imkon haqiqatini fahmlab kelganlar.

Adib Asqad Muxtorning fikricha, ijodkor o'zini bor haqiqatlarni ta'kidlovchi yoki ro'yxatga oluvchi emas, yangi talpinishlar bunyod etadigan kashshof singari his etadi, an'analarsiz hech qanaqa shoir, hech qanaqa izlanish, hech qanaqa yangilik vujudga kelmaydi, an'analalar – so'z san'ati nafas oladigan havo, yangilanish asosi, imkoniyatni cheksizlantiradigan omil. Atroflicha mulohazalardan so'ng Asqad Muxtor quyidagicha xulosaga keladi: "Fanda yangilik ko'pincha eski haqiqatlarni inkor etib dunyoga kelsa, poeziyada (muhabbatda ham) yangilik eski haqiqatlarga asoslanib dunyoga keladi. Poeziyada yangilik tradisiyalarning taraqqiyotdagi ko'rinishidir yoki aniqrog'i – tradisiyalarni chuqur bilish mevasidir" [Asqad Muxtor,4].

Ijodga doir masalalarni tahqiqlash jarayoni ham xuddi shu adabiy-nazariy tafakkur tarzini talab etadi. Unda ham hidoyat hislari bilan yo'g'rilgan fahmu farosat taqozo etiladi. She'riyat, shoirlik va nazmiy mahoratni baholashdagi bu salohiyat ash'orfahmlik deb

qaralgan. Barcha davrlarda soha bilimdonlarining qarashlaridagi ash'or-fahmlik qadrlanib e'tirof etilganini kuzatish mumkin. Birgina misol. Mashhur adib, tarixnavis, "Shajarai turk" va "Shajarai tarokima" asarlari muallifi, Xorazm hukmdori Abul G'oziy Bahodirxon o'ziga Alloh Taolo inoyat qilgan ne'matlarning bayonini keltirar ekan, "Masnaviyot va qasoid va g'azaliyot va muqatta'ot va ruboiyot va barcha ash'orni fahmlamaklik, arabiy va forsiy va turkiy lug'atlarining ma'nosini bilmaklik" fazli ham borligini mamnuniyat ila qayd etadi [Abulg'oziy,12].

Poetik talablar, o'lchov-qoidalar, yetuk idrokiy tamoyillarga doir Navoiy davrining tajribalari keyingi asrlar adabiyoti, adabiyotshunosligi, adabiy tanqidi uchun dasturilamal vazifasini o'tab keldi. Asrlar mobaynida u davr adabiy-nazariy bilimlarini ma'qullamagan, mazkur qarashlarga ergashmagan, ma'suliyatni o'sha salaf-lar singari his etmagan nafis tab' ahli uchramadi. Keyingi adabiyot tarixidagi har qanday yangilanish o'sha asoslardan quvvat olgan ko'rinishlarda sodir bo'lib keldi. Bobur, Munis, Ogahiy, Feruz, Nodira, Uvaysiy, Furqat, Muqimiy singari yuzlab o'zbek mumtoz shoirlarining ijodiy natijalari shunga dalolat qiladi. Yigirmanchi asrning 30-yillarigacha bo'lgan o'zbek so'z san'ati haq ta'limot o'rgatgan yo'l-yo'riqlardan og'ishmadi, turli ma'naviy xavf-xatarlardan omonda bo'ldi.

Insoniyatga ilohan buyurilgan hamma narsalar, ishlar, yaxshi amallar yo'lida bo'lganidek, ijodkorlik qarshisida ham turfa moneliklar, to'siqlar, adashtirguvchi mayllar ko'p. Bu – dunyoning sinovli hayot ekanligi tufaylidir. Adabiy ijodda mohiyatdan uzoqlashish jamiyat uchun tahlikadir. Bu hol odamlarning estetik didlarini buzadi. Saviyalarini tanazzul tomon boshlaydi. Natijasi xalqqa taraladigan ishlarning zarari shaxsiy turmushdagi xatkorlik oqibatidan miqyosiga ko'ra katta bo'lishini fahmlash qiyin emas.

Tuzumda zulm, adolatsizlik hukmron bo'lib, ijtimoiy-siyosiy ahvol tubanlashsa, ma'naviy-ma'rifiy jarayon izdan chiqsa, e'tiqodiy odoblar rioyatiga zid harakatlar ehtimoli kuchayadi. Chor Rossiyasining O'rta Osiyo o'lkalarini ishg'ol etishi yurtlarda johiliyat muhitini vujudga keltirdi. Turkiy xalqlarni parokanda etish, aholini qo'rqituv usulida boshqarish ularning yovuz maqsadlaridan edi. Barcha jabhalarning islohini shior qilgan jadidchilik harakati namoyandalari haq yo'ldan toyilishning ijod sohalaridagi muayyan ko'rinishlarini ham keskin tanqidlari va o'z ibratlari bilan bartaraf etishga erishdilar. O'zlariga yaqin tarixdan kelayotgan she'riyatdagi illatlar xususida ma'rifatparvar Hoji Muin shunday bong urgan edi:

"Yana bir necha jihatdan she'rning ta'sir va foydasini-da inkor qilib bo'lmas. Chunonchi, muhofazai til va adabiyot va milliy hissiyotni qo'zg'otmoq va boshqa vajhlar uchun she'rning kelturadurgan foydalari nihoyatda ko'bdur. Lekin bir necha asrdan beri boshqa san'atlarimiz kabi fani she'rga ham suiste'mol qilinib, alalxusus bu zamonda she'r, ta'rifi xatti hol, tavsifi may va jom yo ta'magarona maddohiyot va g'arazgarona hajviyotdan iborat bo'lub qoldi. Mana shul sababli axloqi omma buzulub, juvonbozlik fe'li va sharobxo'rlik odati xalq ko'zig'a muboh darajasida keldi.

Xalq ash'ori fisqiya va yo hajviyadan lazzat olaturgan bo'lub axloqi diniya ta'sir qilmas. Emdi umid qilurmizki, bir mundan so'ng fazilatlu shuaromiz (bir-ikki zot istisno) oshiqona she'r va hajvomez nazm inshod etmakdan voz kechub, zamonag'a muvofiq fanniy, milliy va axloqiy she'rlar inshod etarga kirishsunlar. Toki, bu sababdan butun mustaqbaldagi avlodimizning axloqlari tuzula boshlab, milliy hislari va ahloqlari tuzalsun" [Hoji Muin, 60-61].

"Muhtaram shuaromizga" nomli bu maqolasida Hoji Muin she'riyatning shar'an mazmum (yomonlangan narsa - T.Sh.) emasligini, asri saodatda ashobi kirom ichida mashhur

shoirilar bo'lib, islom ularni she'r inshodidan man etmaganini aytib, shoirlarni e'tiqodan to'g'ri ijod qilishga da'vat etmoqda.

Batamom to'g'ri poetik mezonlar bo'ylab asrlar davomida kelayotgan o'zbek ijodchiligi va adabiyotshunosligi o'z tarixida hech qachon sovet tuzumidagidek kufroni, qattoliy to'siqqa duch kelmagan edi. Yigirmanchi asr boshlarida boshlangan bu yovuz mafkuraviy siyosat hujumiga turib berish, qalqon bo'lish, qarshilik ko'rsatish va, afsuski, mag'lubiyatga uchrash, ammo abadiy sharafiga sazovorlik aziz jadidchilarimiz zimmasiga tushdi. Haq e'tiqod nasihatlarini asosida yaralgan adabiy-nazariy mezonlar jadidchilik harakatlari bilan birga qatag'on qilindi.

Mumtoz poetik tafakkur va barhayot adabiy an'analarga sadoqat va ular himoyasining eng so'nggi ko'rinishlarini chuqur his qilmoq uchun hamda o'sha qaqshatqich muhitga bugungi adabiyotshunosligimizdagi ilg'or munosabat tarzini teranroq tasavvur qilish uchun shu o'rinda bir talqinga e'tiborimizni qaratamiz.

Filologiya fanlari doktori Bahodir Karimov Vadud Mahmudning "Tanlangan asarlar"iga yozgan so'zboshi ("Munaqqid haqida so'z") da jadidchi munaqqid-adabiyotshunosning "Bu kungi she'rlarimiz va san'atkorlarimiz" (1925 yil) maqolasi to'g'risida fikr yuritir ekan, shunday yozadi:

"Vadud Mahmud maqolasida mavzuni qadimdan boshlaydi, mumtoz adabiyotning xususiyatlari ustida to'xtaydi. Ayniqsa, uning tasavvuf falsafasi bilan uzviy bog'liqligini, o'sha falsafiy fikrlar asosida san'atning oliy namuna darajasiga yetganligini ta'kidlaydi... Bizningcha, Vadud Mahmud 20-yillardayoq zamonaviy adabiyotdan yuksak badiiylilikni, shakl va mazmundagi mukammallikni talab qilgani holda ko'hna adabiyotimiz tahlilini ham eng to'g'ri ilmiy yo'nalishga boshlagan kishilardan biridir" [Vadud Mahmud, 7-8].

So'zboshi muallifi Vadud Mahmudning she'rda ikki jabha (haqiqiy ishq, majoziy ishq) borligi, ikkisinin ham hayotiy, insoniy ekani haqidagi fikrlariga munosabat bildirdi. Navoiyning "Mahbub ul qulub"ida ishq uchga (haqiqiy, majoziy, nafsoniy) ajratilgani, bu eng to'g'ri mezon deb qaraladigan bo'lsa ham, Vadud Mahmud "majoziy ishqqa nafsoniy ishqni qo'shib izohlayotgani ayon"ligini aytadi, keyingi ikki ishq o'rtasida farq kattaligini to'g'ri ko'rsatadi. Eng muhimi, Bahodir Karimov davrdagi adabiy-nazariy tafakkurning ahvolini quyidagicha haqqoniy xulosalaydi:

"Taassufki, adabiyotshunoslikdagi bu yo'nalishni davom ettirish juda katta siyosiy to'siqlarga duch keldi. "Vadudona", "idealistik" talqinlarga qarama-qarshi o'laroq "maydonda javlon urishga faqat marksist tanqidchi haqli" bo'lib, har qanday badiiy asarni ko'proq siyosiy-g'oyaviy tarafdangina tekshirish boshlab yuborilgan edi".

Adabiy jarayonda haq ta'limot ko'rsatmalaridan judolik ana shunday boshlandi. U mustaqillik davrigacha davom etdi. Hozirda uchraydigan e'tiqodiy hadlardan oshishlar, nafsoniy ifodalarga berilishlar dunyoqarashlarga mash'um sho'ro mafkurasidan o'rnashgan asoratlar va g'arbona qarashlarning ta'sirlaridir.

She'riyatni hidoyatli, hikmatli bunyodlanishdan mahrum etadigan sabablar ko'p va ularning deyarli hammasi shaxs-shoirning iymoniy kayfiyatiga borib taqaladi: shoir qalbning dunyo hoyu-havaslariga, zavqu lazzatlariga, huzurlariga ziynatlanib qolishi; barcha mavzularga murojaatda ilohiy haqiqatlarni idroklay bilmaslik; ruh ila vujud mushtarakligi tafakkurida u tomon yo bu tomonga maromidan ziyoda ruju qo'yish; yaxshiliklarni tarannum etsa-da, o'zining ularga amal qilmasligi; dunyoqarash tarzi va hayotda aralash-quralash yashashlik; ovoza bo'lish, mashhurlik topish, hammani qoyil qilish, unvonlarga sazovor bo'lish

istagi; mafkuraviy muhitlarning tazyiqan yoxud ixtiyoriy ravishda iste'dodni o'z maddohiga aylantirishi, subutsizlantirishi...

Bu kabi barcha hol-holatlar badiiy talqinni botilga, shirkka boshlaydi, saviyalar onglarni to'g'rilikdan chalg'itadi. Ijodiy mehnatlarni esa zoe qiladi. O'tgan asrning 30-yillaridagi eng mudhish qatag'ondan keyin, halqlar adabiyoti majburiy g'oyaviy qolipga solingan, siyosatga tobelangan, maddohga aylantirilgan davrda so'z san'atida uzoq yillar aldamchi ifodaviylik tamoyillari g'oyibona yashadi. Asl mas'uliyat va islomiy hadlardan toyilishning adabiy ijodchilikdagi ko'rinishlarini ham haq ta'limot ma'naviy kasalliklardir deb qaraydi. Ruhiyatni tarbiya qilishning, qalb islohinining turli o'rinli muolajalarini o'rgatadi. Ayni hunarlarda ham insonning o'z ijodlari vositasida ikki dunyo saodatiga erishmog'ini xohlaydi. Islom olamining barcha asrlardagi iste'dod sohiblari shuning uchun ham ijodda hushyorlikni mahkam tutganlar, Yaratganning roziligini ko'zlaganlar. Ogahiy o'zining "Ta'viz ul oshiqin" devoni debochasida bu haqda shunday yozadi: "...bas, she'r bir ne'mati uzamodurkim, Tangri Taolo oni har kishiga ato qilmomishdur va oni aytmoq hunari har kimning qo'lidan kelmamishdur va she'r shoirning izzat va davlat ne'matin hosil qilmoqiga sabab, balki ikki dunyo manzilati saodatig'a vosil bo'lmog'ig'a boisdur" [Ogahiy,38].

### **Xulosa**

O'zbek mumtoz she'riyati va she'rshunosligi san'atga nisbatan e'tiqodiy burchlarning, tafakkuriy odoblarning eng ibratli tajribiy tarixi hamdir. Adabiy ijodchilikning bu beqiyos maktabi haq ta'limot ko'rsatmalaridan og'ishmaslik, ularga sadoqatli bo'lish, iymonda sobit bo'lish, so'z mas'uliyatini oliy maqomlarda turib tushunish va tushuntirish salohiyatiga ko'ra yuksak namunadir. Ayniqsa, adabiy jarayonning sha'ni, obro'yi va quvvati Navoiy davrida baland kamoli, hayotbaxsh tamoyillari bilan namoyon bo'ldi. O'zidan keyingi asrlar o'zbek, turkiy adabiyotlarga so'nmas e'tiqodiy an'analar taqdim etdi. She'r fanining shunday kamoli sababidan poetik va adabiy-nazariy tafakkurning ilg'or rutbalari davrlar ma'naviy-ma'rifiy hayotining asosiy mezonlari darajasiga ko'tarildi.

Turkiy adabiyot va adabiyotshunoslik tarixining Navoiy davri shoirlik, she'rshunoslik, ular ta'limi va tarbiyatida kelajak ijodkor nasllar uchun ilohiy hikmat-haqiqatlarga asoslanishning barkamol dasturilamalini vujudga keltirdi. Bu – to'g'ri ijodkorlikning, botilona qarashlar va talqinlashning turfa ko'rinishlaridan asranishning, islom ta'limotlarigina kamoliga kafolat bera oladigan, muhofaza qilishga va ajr berishga qodir ta'limotning aynan o'zidir. Barcha fazl va hikmatlariga ko'ra Navoiy davri o'zbek so'z san'ati va unga doir ilmlarning saodat asridir. Bugungi kun ijodkorlik jarayoni, adabiyotshunoslik burchlari bu boy poetik tafakkur tarixining fundamental tadqiqotlarini taqozo etmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abu Nasr Farobiy. 1979. She'r san'ati. Arabchadan tarjima, izoh va muqaddimalar muallifi Abdusodik, Irisov. Toshkent: G'afur G'ulom. B. 27-40.
2. Alisher Navoiy. 2011. Mahbub ul-qulub. Nashrga tayyorlovchilar: S. G'anieva, S. Rafiddinov. To'la asarlar to'plami. To'qqizinchi jild. Toshkent: G'afur G'ulom. B. 464-465.
3. Alisher Navoiy. 2011. Majolis un nafa'is. Nashrga tayyorlovchi S. G'anieva. To'la asarlar to'plami. To'qqizinchi jild. Toshkent: G'afur G'ulom. B. 339, 290-291, 317, 318, 336, 401, 312, 295, 309, 334, 297, 404-405.
4. Alisher Navoiy. 2011. Nazm ul-javohir. Nashrga tayerlovchi S. G'anieva.

5. Asqad Muxtor. 2023. She'r-shoirning ijtimogiy vijdoni. Adabiyot gazetasi 25.09.2023. B. 4.
6. Abulg'oziy.1992. Shajarai turk. Nashrga tayyorlovchilar: Q. Munirov, Q. Mahmudov. Toshkent: Cho'lpon. B.12.
7. Hoji Muin. 2005. Tanlangan asargar. To'plovchi va nashrga tayyorlovchi N. Namozova. Toshkent: Ma'naviyat. B.60-61.
8. Ogahiy. 1960. Ta'viz ul oshiqin nashrga tayyorlovchi Sh. Sharafiddinov (Xurshid). Toshkent: O'z FA. B. 38.
9. Vadud Mahdud. 2007. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi, so'z boshi, lug'at va izohlar muallifi Bahodir Karimov. Toshkent: Ma'naviyat. B.7-8,9.